

“Geodeziya va geoinformatika” kafedrasi professor-o’qituvchilari Moskva Davlat yer tuzish universitetida safarda

23.11.2022

“Geodeziya va geoinformatika” kafedrasi professor-o’qituvchilari Moskva Davlat yer tuzish universitetida safarda

“Geodeziya va geoinformatika” kafedrasi mudiri Rustam Oymatov va kafedra dotsenti Sarvar Abduraxmonovlar O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi rejasiga hamda Rossiyaning hamkor universitetlari bilan tuzilgan shartnomalarga asosan 2022 yil 10 noyabrdan 10 dekabrgacha bo’lgan davrda Moskva davlat yer tuzish universiteti va Moskva davlat geodeziya va kartografiya universiteti (MIIGAiK)da stajirovka o’tashmoqda. Universitetimiz professor-o’qituvchilari R.Oymatov va S.Abduraxmonovlar 2022 yil 11-17 noyabr kunlari Moskva davlat yer tuzish universitetida bo’lib, universitet faoliyati va uning kafedralari bilan tanishdilar hamda rektor Timur Valikovich Papaskiri qabulida bo’ldilar.



Universitet rektori T.V.Papaskiri bilan o’tkazilgan uchrashuvda safar davomida amalaga oshiriladigan ishlari to’g’risida ma’lumot berildi. Shuningdek, Moskva davlat yer tuzish universiteti rahbariyati va mas’ul kafedralari bilan universitetlarimiz o’tasida imzolangan hamkorlik shartnomalari va “Yo’l xarita”sini amalga oshirish bo’yicha vazifalar belgilab olindi. Jumladan, geodeziya, geoinformatika va yer tuzish sohalari bo’yicha xalqaro olimpiada tashkil qilish, o’quv amaliyotlariga har ikki tomon universitet talabalarini jalb qilish, qo’shma ilmiy tadqiqot loyihibar olib borish, hammulliflikda ilmiy maqola va o’quv materiallarini yaratish, xalqaro konfrensiyalar tashkil qilish, hamkorlikda ilmiy loyihibarda ishtirok etish, doktorantlarga ilmiy rahbarlik qilish, talabalar va professor-o’qituvchilar almashunivi kabi yo’nalishlarda hamkorlikda yo’lga qo’yiladigan ishlari va ularning amaliy yechimlari kelishib olindi.



Universitet rektori T.V.Papaskiriga universitetlar o’tasidagi samarali hamkorlik hamda ko’rsatilayotgan yuksak e’tibor uchun universitetimiz raxbariyatining minnatdorchilik ramzi sifatida esdalik sovg’alari topshirildi. “TIQXMMI” MTU va MDETU o’tasidagi hamkorlik rejalarini amalga oshirish hamda universitetimiz professor-o’qituvchilarining malaka oshirishlarini samarali tashkil etishda yaqindan yordam bergan Moskva davlat yer tuzish universiteti xalqaro faoliyat bo’yicha prorektori Vasiliy Ivanovich Nilipovskiya samimiy minnatdorchilik bildirildi.

Axborot beruvchi “Geodeziya va geoinformatika” kafedrasi mudiri R.K.Oymatov